
TUMAN HOKIMINING TABRIGI

Hurmatli yurtdoshlar

Shu kunlarda har birimiz o'z hayotimizda o'chmas iz qoldirgan 2022 yil bilan xayrlashib, ezgu qadamlar bilan kirib kelayotgan 2023 yilni ko'tarinki kayfiyat va yaxshi niyatlar bilan qarshi olmoqdamiz. Fursatdan foydalanib, butun tumanimiz ahlini ushbu qutlug' ayyom - kirib kelayotgan Yangi yil bayrami bilan chin qalbidan samimiy tabriklayman. Darhaqiqat, bugun barchamiz o'z yakuniga yetayotgan 2022 yilni zo'r quvonch hamda ezgu taassurotlar bilan kuzatar ekanmiz, "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" tumanimiz ahli uchun nihoyatda omadli kelganini, uning zamirida barcha soha vakillarining ulkan xizmatlari mujassamligini mamnuniyat bilan e'tirof etaman. Ayniqsa, bugun bor kuch va imkoniyatlarimiz yurtimiz taraqqiyotiga safarbar etilgan bir paytda, amalga oshirilayotgan izchil islohotlar va oqilona siyosat samaradorligi - xalqimiz turmush tarzini yangi bosqichga ko'tarish, aholini ijtimoiy himoya qilish, keksalarimizni qadrlash, eng muhimi, tinchlik-totuvlik, mustaqillikni asrab-avaylash, ozod va obod Vatan barpo etish jabhalarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shuni mamnuniyat bilan alohida ta'kidlash lozimki, ulkan yutuqlarga boy bo'lgan yilda har bir soha bo'yicha ulkan natijalarga erishilib, bunyodkorlik, aholi hayot darajasini yaxshilash va yurt farovonligi yo'lida muhim ahamiyatga ega bo'lgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Xalqimizning turmush darajasi yaxshilanib bormoqda. Tumanda joriy yilda ko'plab ijtimoiy soha ob'ektlarining qad rostlashi, sanoatning jadal sur'atlar bilan kirib kelayotganligi, tadbirkorlik faoliyatining yanada avj olayotganligi buning yorqin misolidir. Yangi yilda ham ulkan ezgu ishlarni birgalikda davom ettiramiz. Ko'zda tutilgan ushbu ishlarning barcha-barchasi, hech shubhasiz, o'zining mantiqiy yakuniga yetkaziladi, ko'zlangan maqsadga erishiladi.

Aziz do'stlar!

Fursatdan foydalanib, yana bir bor barchangizni kirib kelayotgan Yangi - 2023 yil bilan chin yurakdan samimiy tabriklayman. Yangi yilda xonadoningizdan cheksiz quvonch, fayzu baraka, tinchlik-osoyishtalik arimasin! Buyuk va muqaddas Vatan - jonajon O'zbekistonimiz osmoni hamisha musaffo bo'lsin! «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili» barchamizga omadli kelsin! Yangi yilingiz muborak bo'lsin!

Sufhonjon SOLIEV,
Rishton tumani hokimi.

2023-01-02 06:52:38